

1. Chumolilar haqida nimalarni bilasiz?
2. Hech chumolilarni kuzatganmisiz?
3. Chumolining qanday ko'rinishini eslay olasizmi?

O'qituvchi o'quvchilardan birini darslikdagi chumolilar haqidagi hikoyani ovoz chiqarib o'qib berishni so'raydi.

O'qituvchi yana savollar beradi:

1. Chumolilar haqida yana qanday yangi ma'lumotlarni bilib oldingiz?
2. Bu hasharotlar nimalari bilan alohida ajralib turadi?

Namuna tahlili (5 daqiqa).

Darsning ushbu qismi tuzilishi bo'yicha odatdagidek o'tkaziladi. Darslikda yordam sifatida o'quvchilar ish rejasini tuzishlari va amaliy qismni bajarishlari uchun video ko'rsatma berilgan.

Amaliy qism (25 daqiqa).

O'qituvchi ishni baholash mezonlarini e'lon qiladi. Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur bo'lgan hollarda, o'qituvchi yordam ko'rsatadi.

Yakunlash va mulohaza (5 мин.).

Darsning bu qismi ham tuzilishi bo'yicha odatdagidek o'tkaziladi.

Dars oxirida o'qituvchi o'quvchilarning erishgan natijalarini baholaydi.

4-dars. Qurbaqa

Dars maqsadlari:

- o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish;
- qaychi va qog'oz bilan ishlash mahoratini rivojlantirish;
- yakuniy natijaga erishish uchun harakatlar ketma-ketligini to'g'ri bajarish ko'nikmasini shakllantirish.

Kerakli materiallar: rangli qog'oz, qaychi, yelim, chizg'ich, qalam, darslik, buyum namunasi.

Tashkiliy qism (5 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

O'qituvchi bugungi darsda o'quvchilar rangli qog'ozdan hajmli Qurbaqa malika shaklini yasashlarini tushuntiradi.

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

1. Qurbaqalar haqida qanday ertaklarni o'qigansiz?
2. Qaysi ertakda Qurbaqa malika qahramoni bor?
3. Ayting-chi, qaysi biringiz jonli qurbaqani ko'rgansiz?
4. Qurbaqani qayerlarda uchratish mumkin?

O'qituvchi o'quvchilardan birini darslikdan qurbaqalar haqidagi hikoyani ovoz chiqarib o'qib berishini so'raydi.

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

1. Qurbaqalar haqida qanday yangi ma'lumotlarni bilib oldingiz?
2. Bu hayvonlar nimasi bilan e'tiborli?

Namuna tahlili (5 daqiqa).

Darsning bu qismi tuzilmaga ko'ra odatdagidek o'tkaziladi. Darslikda yordam sifatida o'quvchilar ish rejasini tuzishlari va amaliy qismni bajarishlari uchun video yo'riqnoma keltirilgan.

Amaliy qism (25 daqiqa).

O'qituvchi ishni baholash mezonlarini e'lon qiladi. Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur bo'lgan hollarda, o'qituvchi yordam ko'rsatadi.

Yakunlash va mulohaza (5 daqiqa)

Darsning bu qismi tuzilmaga ko'ra odatdagidek o'tkaziladi.

Dars yakunida o'qituvchi o'quvchilarning yutuqlarini baholaydi.

5-dars. Kaktus

Dars maqsadlari:

- o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish;
- qaychi va qog'oz bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish;
- yakuniy natijaga erishish uchun harakatlar ketma-ketligini to'g'ri bajarish qobiliyatini shakllantirish.

Kerakli materiallar: rangli qog'oz, qaychi, bir martalik stakanchalar, yelim, qalam, kichik rangli toshchalar (plastilindan o'zingiz yasagan toshchalar bilan almashtirish mumkin), darslik, buyum namunasi